

MAKTABGACHA TA`LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA BOLALARINI KASBGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH

Mamadjanova Xushruy Shavkatovna
 Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so`zlar: mehnat, mehnat tarbiyasi, kasb, qiziqish, qo`l mehnati, syujetli-rolli o`yinlar.

Annotatsiya

mazkur maqolada menat va menhat tarbiyasiga ta`rif berilib, maktabgacha ta`limda mehnat tarbiyasi va bolalarini kasbga qiziqishlarini rivojlantirish mazmun-mohiyati va maqsadi bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Mehnat jamiyat yoki alohida individ talab va ehtiyojlarini qondirish uchun bajariladigan faoliyat turidir. Mehnat iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida ko`riladi.

Mehnat — insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini o`zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. Mehnat kishilik jamiyatni hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy ne`matlar yaratiladi. [1] Moddiy va ma`naviy ne`matlarni yaratishga o`rgatish mehnat tarbiyasining asosiy vazifalaridan sanaladi. Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo`lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko`zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo`lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo`lgan. Zero, mehnat tarbiyasi orqali odamni hayvondan farqlanadi. Mehnat tarbiyasi orqali inson tabiatdagi narsalarni o`zgartiradi, mehnat tarbiyasi orqali insonni o`zi ham kamol topadi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o`sadi. Hattoki, mehnat tarbiyasi yordamida insonda mehnat jarayoniga to`gri munosabat tarbiyalanib, tabiat kuchlarini o`z maqsadiga bo`ysundirish qobiliyatlarini ham shakllanadi.

Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo`lib kelgan. Ayniqsa oila maktabgacha ta`lim tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilgan mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyuştilirdi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo`lishidadir. Maktabgacha ta`lim muassasalarida mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va intizomlikka qat`iy amal qilinishi lozim, Chunki tashkil etilgan mehnat faoliyatida bola o`z ixtiyori bilan qatnashishi shart, jalb qilingan bola mehnat faoliyatida og`ir ishlar, qo`lidan kelmaydigan mehnat turlari bilan shug`ullansa bolada mehnat qilishga emas, balki mehnatdan bezishga olib kelamiz. Vaholangki, har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Zero, maktabgacha ta`lim tashkilotlari, oilada bajariladigan uncha murakkab bo`lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Maktabgacha ta`lim tashkilotining pedagogi bolalar mehnati faoliyatining vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etillishini

ota-onalarning ongiga singdirgan holda bolalarni asta – sekin bolalar mehnati faoliyatiga o`rgatib borishi zarur. Bu hamkorlik bolalarni mustaqil mehnat faolyati bilan shug`ullanishlariga olib keladi. Natijada bolalarda insoniy xislatlarning faol namayon bo`lishi va o`z ishidan ma`naviy qoniqish hosil bo`ladi. Buning uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o`zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish uyishtirishi, ekskursiyalarga olib chiqishi ham bolalarning aynan mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishish uchun zamin bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotining pedagogi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qo`lidan keladigan quyidagi mehnat turlari:

- o`z-o`ziga xizmat qilish
- xo`jalik va maishiy mehnat
- tabiat quchog`idagi mehnat
- qo`l mehnatiga jalb qilinishi haqida ota-onalarga yo`llanmalar berib boradi. Bu bilan esa bolalarning mehnat tarbiyasi bo`yicha belgilangan quyidagi vazifalarini hale tib boradi:
- Bollarni bo`lajak mehnat faolyati oldidan maqsad qo`yishga o`rgatish;
- Mehnat jarayonini, mehnat faolyatini eng oddiy rejalashtirib olishga o`rgatish;
- O`z ish joyini tayyorlab olishga ,mehnat madaniyatiga o`rgatish;
- Mehnat malakasini va ko`nikmalarini o`rgatish;
- Bajarilgan mehnatning natijasi, sifati va ahamiyati qancha vaqtida bajarilganligiga qarab o`zining va boshqalarning to`g`ri baholashga o`rgatish;
- Mehnat faolyati sabablarini shakllantirish;
- Jamoa mehnat faolyati vaqtida bolalarda ijobjiy munosabatlarni shakllantirish va h.k.

Maktabgacha ta`lim tashkilotining pedagogi mehnat tarbiyasining vazifalarini amalga oshirib borishi natijasida bolarda mehnatni sevish, har qanday inson faoliyatini hurmat qilish bilan bir qatorda kasbga bo`lgan qiziqishlari ham sekin-asta shakllantirib boradi. Bu bilan birga bolalarni beshta markazlarda olib boriladigan faoliyatlarni o`rni alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotining pedagogi bolalarni kasbga qiziqtirishi va ma`lum kasbga nisbatan qobiliyatlarini aniqlashi borasida ertaklar, she`rlar, kasbiy faoliyatlar haqida ma`lumot beruvchi sahna ko`rinishlari, topishmoqlar, maqollar, kasbga oid rasmlar, noana`naviy ta`lim metodlaridan foydalanishi hamda sayr va ekskursiyalarda ham bolalarning kasbga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda o`zining pedagogik mahoratini ko`rsata bilishi lozim. Masalan, quyidagi she`rlar

Shifokor

Dard bor joyda darmon bor
 Buni bilar shifokor,
 Shundan kim bo'lsa bemor
 Tuzatishga u tayyor.

Haydovchi

Mashinada, poezdda,
 Tramvayda — temir izda
 Ziyrap, mohir haydovchi,
 Tashir yuk va yo'lovchi.

Dehqon

Dalasiga olib yo'l,
 Dehqon ko'zlar hosil mo'l.
 O'z ishiga u usta
 Xirmon uyadi kuzda.

O'qituvchi / Muallimim

Ulug' ilm ildizi sizda mujassam,
 Turli xil sohadan berasiz ta'lim.
 Uni tinglaganda kichik jussam ham,
 Yetuk inson kabi o'sgay, muallim.
 Qalbingizda doim ilm porlaydi,
 Go'yo u nur kabi bizni chorlaydi.
 Siz mening tundagi yorug' yulduzim,
 Nurli kunduzimsiz, aziz muallim.

Tikuvchi / Chevar

Menchi men katta bo'lsam
 Mohir chevar bo'laman
 O'zbeginni do'ppisini
 Qoyil qilib tikaman

Sportchi

Sport bilan do'stlashib
 Kuch — quvvatga to'laman
 Kelajakda men
 Jahon championi bo'laman [2]

Yo quyidagi ertak:

Boylit topgan bola

Bor ekan-u, yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda bir cholning ikki o'g'li bo'lib, ulardan biri sabrli va mehnatkash, ikkinchisi esa yalqov va ishyoqmas ekan. Katta o'g'il tinmay mehnat qilgani uchun ham sog'gom va baquvvat bo'lsa, dangasa o'g'il xo'ppa semiz va dardmand ekan.

Kunlardan bir kuni qarib qolgan ota merosni taqsimlashga kelganda o'zi qurgan imoratni qaysi o'g'liga qoldirishni bilmay, boshi qotibdi. Shunda ularni sinovdan o'tkazmoqchi bo'libdi.

– Shartim shunday, kimda-kim o'ziga bo'lib berilgan yerdan mo'l hosil olsa, hovli-joy o'shang qoladi, debdi. Va o'z-o'zicha chandalab, baribir katta o'g'il g'olib bo'lsa kerak, chunki uning suyagi mehnatda qotgan, deya o'yabdi. Ammo, kichik o'g'il bo'sh kelmabdi. O'ziga ajratilgan yerdan mo'l hosil yig'ish uchun ishchilar yollabdi. Yig'im-terim paytida bir necha kishining uygan xirmoni balandroq kelibdi. Katta o'g'il bundan xafa bo'lmabdi. Chunki u xuddi otasi qurgan imoratdek uy sola olishiga ko'zi yetarkan-da. Ammo, natija hammani hayron qoldiribdi.

Kichik o'g'il mehnat qilmay rohat ko'rish mumkin emasligini tushunib yetibdi. Chunki u kamharakatlikdan tobora semirib, xuddi koptokday bo'lib qolibdi.

Bundan o'ziga tegishli xulosa chiqarib, otasiga ekin-tikin ishlarida, novvos boqishda, o'tin terishda yaqindan ko'maklashibdi. Mehnat uning yuzlariga nur, taniga tetiklik bag'ishlabdi. Shunda kichik o'g'il haqiqiy boylik bu – salomatlik ekanini anglab, sog'lig'ini va baxtini mehnatdan topibdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogi bolalarni kasbga qiziqtirishida 2-syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish rivojlanish markazida:

- "Shifokor"
- "Sartarosh"
- "O't o'chiruvchi"
- "Militsiya xodimi"
- "Sotuvchi" kabi kasb bilan bog'liq o'yinlar uchun to'plam va aksessuarlarni qo'llash tavsiya etilgan [3]

Xulosa qilib quyidagilarni aytish joiz: kasb - hunar inson uchun zarur faoliyat bo`lib, avloddan avlodga o'tadi. Kasb - hunar tufayli inson o'z orzulariga erishadi va jamiyatda o'z o'rmini topadi. Zero, "mehnat qilgan-elda aziz" deb xalqimiz bejizga aytmagan. O'zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnati, halol va pokligi bilan dunyoga tanilganligi bois, biz ham bu an'anani davom ettirib, o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga sindirishimiz darkor.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Vikipediya, ochiq ensiklopediya
2. <https://myfarzand.uz/sherlar-kasblar.html>
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent -2022
4. Ismoilova Shaxnoza Baxtiyor qizi Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7444971> Science and innovation international scientific journal Volume 1 Issue 8 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337